

2-1-2021

COLLATERAL OF BANK LOANS AND REGULATION OF COLLATERAL ASSESSMENT ACTIVITIES IN FOREIGN EXPERIENCE

D. Abdikarimova PhD, associate prof.
Finance Institute of Tashkent

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Abdikarimova, D. PhD, associate prof. (2021) "COLLATERAL OF BANK LOANS AND REGULATION OF COLLATERAL ASSESSMENT ACTIVITIES IN FOREIGN EXPERIENCE," *International Finance and Accounting*: Vol. 2021 : Iss. 1 , Article 25.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2021/iss1/25>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

PhD, dots. D.Abdikarimova
Toshkent moliya instituti

**XORIJIY AMALIYOTDA BANK KREDITLARI GAROV
TA'MINOTI HAMDA GAROV TA'MINOTINI BAHOLASH
FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH**

Ushbu maqolada bank kreditlari garov ta'minoti va garov ta'minotini baholash bo'yicha turli iqtisodchi olimlarning yondashuvlari yoritilgan. Bank kreditlari garov ta'minoti, garov ta'minotini baholashning mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bir qator tadqiqot metodlari orqali xorijiy amaliyotda bank kreditlari garov ta'minoti mintaqalar kesimida tahlil qilingan. Bunda kompaniyalar tomonidan bank kreditlari olinishida garov ta'minotining muammoli jihatlari e'tibor qaratilgan. Qolaversa, Yevropa tajribasi asosida garov ta'minotini baholash faoliyatini tartibga solish mexanizmlari hududlar kesimida o'rganilgan. Maqola so'nggida bank kreditlari garov ta'minoti va garov ta'minotini baholash faoliyatini tartibga solish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: garov ta'minoti, garov ta'minotini baholash, bank kreditlari, axborot assimetriyasi, risk.

PhD, associate prof. D.Abdikarimova
Tashkent Institute of Finance

**COLLATERAL OF BANK LOANS AND
REGULATION OF COLLATERAL ASSESSMENT
ACTIVITIES IN FOREIGN EXPERIENCE**

This article discusses the approaches of various economists to collateral of bank loans and collateral assessment. Collateral of bank loans, the essence, significance and specifics of collateral assessment are considered. In addition, a number of research methods have been used to analyse collateral of bank loans in foreign practice by region. It focuses on the problematic aspects of collateral in obtaining bank loans by companies. In addition, the mechanisms for regulating collateral assessment activities have been studied by region based on the European experience. There are scientific conclusions and recommendations on collateral of bank loans and the regulation of collateral assessment activities at the end of the article.

Keywords: collateral, collateral assessment, bank loans, information asymmetry, risk.

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishga erishish, iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish, shuningdek, biznes yuritishning turli shakllarini yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar yaratishda bank kreditlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda samaradorlikka erishish uchun bank kreditlarining qoplanishi bilan bog'liq risklarni maksimal kamaytirish talab etiladi. Bunda bank kreditlarining garov ta'minotini shakllantirish hamda garov ta'minotini baholash amaliyotlarini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyatni tartibga soluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan bank kreditlari berilishida ushbu jihatlarga e'tibor qaratish zarurligi ko'zda tutilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda uning samarali mexanizmlari ishlab chiqilmaganligiga yoki amalda qo'llanilmasligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

“Garov bilan ta’minlangan kreditorlar talablarini kredit mablag‘lari qaytarilishining kafolati hisoblangan garovdagi mol-mulk qiymatidan qondirish tizimining samarasizligi qo‘shimcha mablag‘ jalb etish imkoniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda”[1]. Ushbu jihatlar ayni paytda bank kreditlari garov ta’minoti hamda garov ta’minotini baholash faoliyatini o‘rganish dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bank kreditlari garov ta’minoti va garov ta’minotini baholash masalasi rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tijorat banklari va baholovchi kompaniyalar uchun faoliyat samaradorligini oshirish uchun muhim jihatlardan hisoblanadi. Shu sababli ushbu maqolada bank kreditlari garov ta’minoti hamda garov ta’minotini baholash amaliyotini tartibga solish bo‘yicha xalqaro tajriba tahlil qilingan.

Adabiyotlar sharhi

Bank kreditlari garov ta’minotini o‘rganish va garov ta’minotini baholash faoliyatini tahlil qilishda ko‘plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Zhichao Yin, Mei Qiu, Li Ganlar fikriga ko‘ra, bank kreditlari, odatda, kredit olish uchun qarz oluvchilarning mol-mulki yoki boshqa aktivlaridan foydalangan holda garov ta’minotini o‘z ichiga oladi, ayniqsa, risk darajasi yuqori bo‘lgan yoki biznes faoliyati kichik bo‘lgan kredit oluvchilarga berilgan kreditlar uchun ushbu amaliyot keng qo‘llaniladi [2].

O‘ziga ishongan bosh direktorlari bo‘lgan firmalar garov ta’minoti qo‘yishga moyilligi yuqori bo‘lganligi sababli kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini ma’lum darajada pasaytirishga erishadi [3].

Bir guruh olimlar banklar joriy aktivlarga nisbatan asosiy vositalarni garov sifatida afzal ko‘rishini aytib o‘tishgan, chunki garovga qo‘yilgan asosiy vositalarning mulk huquqi joriy aktivlarga qaraganda osonroq amalga oshiriladi. Shuning uchun qarz beradigan banklar joriy aktivlarga nisbatan asosiy vositalardan iborat garov ta’minotiga aniq talablar qo‘yishi mumkin, ammo garov vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan asosiy vositalar, odatda, kompaniyalar uchun cheklangan [4].

Sergio Mayordomo, Antonio Moreno, Steven Ongena, Maria Rodriguez-Moreno noto‘g‘ri tanlov va ko‘zda tutilmagan muammolarni kamaytirishdan tashqari banklar riskni kamaytirish va kapitalning me’yoriy ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun garov ta’minotini ham faol boshqarishayotganligini ta’kidlashgan [5].

Regis Blazy, Laurent Weill ta’kidlashicha, nazariy adabiyotlarda banklar tomonidan garov ta’minotidan foydalanishning uchta asosiy sababi keltirilgan. Birinchidan, bank garovni talab qilishga moyil, chunki u qarzni to‘lamagan taqdirda kredit yo‘qotilishini kamaytiradi. Ikkinchidan, garov ta’minoti qarz oluvchini o‘zining kelajakdagi moliyaviy holatiga to‘g‘ri baho berishga undaydi va bu tufayli bank tomonidan qarz berish to‘g‘risida qaror qabul qilinishidagi noto‘g‘ri tanlov muammosini hal qilishi mumkin. Uchinchidan, garov qarz oluvchi qarz olgandan so‘ng riskli loyihalarga sarmoya kiritishda yoki kredit berilgan

loyihaning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlashda yuzaga keladigan ko'zda tutilmagan muammolarni kamaytirishi mumkin [6].

Garov ta'minoti qarz oluvchining moliyaviy holatining sifat belgisi sifatida xizmat qilishdan ko'ra qarz oluvchini nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qiladi [7]. Garov ta'minoti qarz berish paytida bank va qarz oluvchi o'rtasida axborot assimetriyasi mavjudligidan kelib chiqadigan noto'g'ri tanlov muammosini yumshatish yoki yo'q qilishga imkon beradi [8].

Mamlakatimizda ham bir qator tadqiqotchilar garov ta'minoti va uni baholash bo'yicha izlanishlar olib borishgan. S.Nematulloev tijorat banklari va nobank kredit muassasalari tomonidan beriladigan mikrokreditlarning garov ta'minotiga qo'yiladigan talablarni teng qilish va ushbu talablarni Markaziy bank tomonidan belgilanishini joriy qilish lozimligini ta'kidlagan [9]. Shuningdek, B.Izbosarov dunyoning bir qator mamlakatlarida (Shvetsiya, Rossiya) kunlik kreditlar Markaziy banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni garovga olgan holda foizsiz berilishini va ular milliy to'lov tizimini qo'llab-quvvatlash maqsadida berilishini e'tirof etgan [10].


Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda aytish mumkinki, bank kreditlari garov ta'minoti va garov ta'minotini baholashni tartibga solish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada bank kreditlari garov ta'minoti va garov ta'minotini baholash, shuningdek, garov ta'minotini baholash faoliyatini tartibga solishning xalqaro tajribalarini o'rganishda qiyoslash, induksiya, deduksiya, analiz, sintez kabi metodlardan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar

Xalqaro amaliyotda banklarda garov ta'minoti masalasi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, Jahon banki tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda kompaniyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarda nima sababdan ushbu mamlakatlarda moliyalashtirish masalasi qiyinligini tushunishga yordam beradi. So'rovnomalarda qatnashgan kompaniyalarning umumiy tendensiyasi shuni ko'rsatadiki, kredit olish uchun arizalar asosan garov ta'minoti yetarli emasligi yoki qabul qilinmasligi sababli rad etiladi. Ko'pgina hollarda kompaniyalar hatto banklar tomonidan tez-tez so'raladigan garov talablarini bajara olmasliklari sababli kredit olish uchun murojaat ham qilmaganlar [11]. Quyida garov ta'minoti yetmaganligi sababli rad etilgan kredit olish uchun arizalar ulushi mintaqalar miqyosida tahlil qilingan (1-rasm). Mintaqalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yevropa va Markaziy Osiyoda garov ta'minoti yetmaganligi sababli kredit olish uchun arizalar eng ko'p rad etilgan bo'lsa, Lotin Amerikasida esa bu ko'rsatkich eng past natija qayd etgan.



1-rasm. Garov ta'minoti yetmaganligi tufayli rad etilgan kredit olish uchun arizalar ulushi (foizda) [12]

2-rasmda esa garov ta'minoti talablari juda yuqori ekanligi sababli topshirilmagan arizalar ulushi bo'yicha so'rovnoma natijalari aks ettirilgan.




2-rasm. Garov ta'minoti talablari juda yuqori ekanligi sababli kredit olish uchun topshirilmagan arizalar ulushi (foizda) [13]

Janubiy Osiyo mintaqasida garov ta'minoti talablari juda yuqori ekanligi sababli topshirilmagan arizalar ulushi keskin yuqori ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Yevropa va Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida bu ko'rsatkich eng past ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, Yevropa va Markaziy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida kompaniyalar tomonidan faoliyatni kredit evaziga moliyalashtirishga bo'lgan harakatlar boshqa mamlakatlardagidan ko'ra ko'p uchraydi va bu mamlakatlarda garov ta'minoti asosida kredit berish keng tarqalganligidan dalolat beradi, biroq kompaniyalarning aksariyatida garov ta'minoti yetarli darajada shakllanmaganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Garov ta'minotidan foydalanish amaliyoti kichik va o'rta biznes vakillari uchun keng qo'llaniladi. Kichik va o'rta biznes vakillari o'zlarining firmalarini moliyalashtirish uchun o'z uylarini garovga qo'yishlari odatiy holdir. 2019-yilda Financial Stability Board tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra AQShdagi kichik va o'rta biznes vakillariga berilgan kreditlarning 90%ida garov ta'minoti mavjud, ushbu ko'rsatkich Shveysariyada 82%, Kanadada 65%, Xitoyda esa 53%ni tashkil etadi [14].



3-rasm. Markaziy, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Yevropa mamlakatlarida garov ta'minotini baholash bo'yicha tartibga solish mexanizmlari [15]

Markaziy, Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Yevropa mintaqalarida garov ta'minotini baholash bo'yicha tartibga soluvchi regulyatorlar keltirilgan (3-rasm). Ushbu regulyatorlar o'z darajasi va qamrovi jihatdan ushbu hududlarda

banklarning garov ta'minoti va uni baholash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda qo'l keladi.

Bugungi kunda xalqaro darajadagi regulyatorlarning ba'zi jihatlari ma'lum bir mamlakatlar uchun mos kelmasligi mumkin. Bunday hollarda mahalliy regulyatorlar va nazoratchilar tomonidan qo'shimcha mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim: moliya tizimida ishlatiladigan garov qiymatlari to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratish, baholash usullari va davriyligini inobatga olgan holda aniqroq baholash tizimini yaratish, garovni baholash uchun ishlatiladigan diskont stavkalari qoidalarini belgilash va tegishli moliya bozori regulyatoriga baholash sohasida to'liq yoki qisman nazoratni o'z ichiga olgan kengroq vakolat berish shular jumlasidandir.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ham bank kreditlari uchun garov ta'minoti amaliyoti keng qo'llanilmoqda, chunki bu orqali bank kreditlari bo'yicha riskni kamaytirish mumkin. "Qarz oluvchi tomonidan shartnomaga doir majburiyatlar buzilgan taqdirda, banklar taqdim etilgan kreditlarni va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada nazarda tutilgan tartibda muddatidan ilgari undirishga, shuningdek undiruvni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishga haqli" [16].

Bank kreditlari garov ta'minotini yaxshilash va uni baholash amaliyotining yo'lga qo'yilishi kreditlarning qoplanishi bilan bog'liq bir qator muammolarni hal etishga hamda baholash faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa

Xalqaro amaliyotda bank kreditlari garov ta'minoti va garov ta'minotini baholash amaliyotini tartibga solishni o'rganish orqali quyida xulosa va tavsiyalarni berish mumkin.

Birinchidan, tijorat banklari tomonidan risk darajasi yuqori bo'lgan biznes vakillariga kreditlar ajratilayotganda bank kreditlari garov ta'minotini o'z ichiga olishi va banklar garov ta'minotini baholashning samarali mexanizmlarini qo'llashi zarur. Bu bank kreditlarining qoplanishini ta'minlaydi va bank faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, bank kreditlarida garov ta'minoti bo'yicha talablarning mavjudligi kredit oluvchilar tomonidan o'zlarining kelajakdagi moliyaviy holatini to'g'ri baholashga undaydi. Bu esa kredit beruvchi bankning ushbu kredit bilan bog'liq turli risklarni, xususan, axborot assimetriyasi natijasida kelib chiqadigan noto'g'ri tanlov bilan bog'liq muammolarni kamayishiga olib keladi.

Uchinchidan, garov ta'minoti qarz oluvchining moliyaviy holatining sifat belgisi sifatida xizmat qilishdan ko'ra aksariyat hollarda amaliyotda qarz oluvchini nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qilayotganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

To'rtinchidan, xalqaro amaliyotda bank kreditlarini olish uchun arizalarning rad etilishida asosiy masala garov ta'minoti hisoblandi. Bunda aksariyat hollarda garov ta'minoti talblarining juda yuqori ekanligi yoki qarz oluvchilarning moliyaviy holati garov ta'minoti talblariga javob bermasligi sababli arizalar rad etilishi tijorat banklari tomonidan e'tiborga olish lozim.

Beshinchidan, tijorat banklari garov ta'minoti uchun talablarni ishlab chiqishda kredit oluvchilarning imkoniyatlarini ham to'g'ri baholashlari lozim. Bu orqali banklar kredit oluvchilarning arizalarini maksimal qanoatlantiradi va kredit oluvchilar qamrovini ham kengaytiradi.

Oltinchidan, xalqaro tajriba asosida garov ta'minotini baholash faoliyatini tartibga solish amaliyotini o'rganish orqali mamlakatimizda bank kreditlari garov ta'minotini baholash faoliyatining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bu nafaqat mamlakatimizdagi tijorat banklarining samaradorligini oshiradi, balki baholovchi tashkilotlar faoliyatini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Kreditorlarning huquqiy hinoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4026-sonli Qarori; 23.11.2018;

2. Zhichao Yin, Mei Qiu, Li Gan. Information contents of collateral under heterogeneous borrower qualities on the bank loans market in China. // *China Economic Review*, Volume 57, October 2019, 101326. – P.12;

3. Chih-Yung Lin, Yehning Chen, Po-Hsin Ho, Ju-Fang Yen. CEO overconfidence and bank loan contracting. // *Journal of Corporate Finance*, Volume 64, October 2020, 101637. – P.22;

4. Jing Zeng, Xiongyuan Wang, Min Xiao. The impact of government property right law on collateral loans: A quasi-natural experiment based on the enactment of Chinese property law. // *International Review of Economics & Finance*, volume 63, September 2019, Pages 273-283;

5. Sergio Mayordomo, Antonio Moreno, Steven Ongena, Maria Rodriguez-Moreno. Bank capital requirements, loan guarantees and firm performance. // *Journal of Financial Intermediation*, 14 June 2019, 100825;

6. Regis Blazy, Laurent Weill. Why do banks ask for collateral and which ones? // CREFI-LSF Working Paper Series. Article, December 2006. – P.36;

7. Ralf Elsas, Jan Pieter Krahen. Collateral, Default Risk, and Relationship Lending: An Empirical Study on Financial Contracting. // Article, April 2000. – P.38;

8. Gabriel Jiminez, Jesus Saurina. Collateral, types of lender and relationship banking as determinants of credit risk. // BANCO DE ESPANA, 2004. – P.30;

<https://www.bde.es/f/webbde/SES/Secciones/Publicaciones/PublicacionesSerias/DocumentosTrabajo/04/Fic/dt0414e.pdf>

9. S.S.Nematulloyev. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish. // "Moliya va bank ishi" elektron ilmiy jurnali, IV son, iyul-avgust, 2019. – B.99-105;

http://journal.bfa.uz/maqola/Maqola_4_son_2019.pdf

10. B.B.Izbosarov. Tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning nazariy va amaliy asoslari. // "Moliya va bank ishi" elektron ilmiy jurnali, II son, mart-aprel, 2019. – B.8-17;

<http://journal.bfa.uz/maqola/20192son1.pdf>

11. Secured Transactions, Collateral Registries and Movable Asset-Based Financing. // Knowledge Guide, World Bank Group, November, 2019. – P.118;

<https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/32551/142346.pdf?sequence=4&isAllowed=y>

12. Secured Transactions, Collateral Registries and Movable Asset-Based Financing. // Knowledge Guide, World Bank Group, November, 2019. – P.118;

<https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/32551/142346.pdf?sequence=4&isAllowed=y>

13. Secured Transactions, Collateral Registries and Movable Asset-Based Financing. // Knowledge Guide, World Bank Group, November, 2019. – P.118;

<https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/32551/142346.pdf?sequence=4&isAllowed=y>

14. Leonardo Gambacorta, Yiping Huang, Zhenhua Li, Han Qiu. Data, Collateral and Implications for the Credit Cycle. // December 9, 2020;

<http://www.voxchina.org/show-3-208.html>

15. Karlis Bauze. Collateral valuation in the CESEE region. // Financial Sector Advisory Center (FinSAC), The World Bank Group. – P.20;

<http://pubdocs.worldbank.org/en/170621527522945918/Collateral-valuation-in-the-CESEE-region.pdf>

16. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 580-sonli Qonuni, 63-modda. 5.11.2019